

## INVESTITSIYALARNI MOLIVAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ismailov Dilshod Anvarjonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD., dotsent

E-mail: [d.ismailov@tsue.uz](mailto:d.ismailov@tsue.uz)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning amaldagi holati, iqtisodiyotda investitsion jozibadorlikni tartibga solish orqali investitsion jarayonlarni moliyaviy boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zaruriy investitsiyaga bo'lgan talabni aniqlash uslubiyotini ishlab chiqish va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalar hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiyalarni moliyaviy boshqarish, sindikatli kredit, xorijiy tajriba, investitsiyaviy jozibadorlik, venchur kapitali, venchur bozori, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, kapital sig'imi.

### Аннотация

В данной статье исследованы современное состояние финансового управления инвестициями, особенности финансового регулирования инвестиционных процессов через повышение инвестиционной привлекательности экономики, а также разработана методика определения необходимого объема инвестиций для обеспечения устойчивого экономического роста и изучены факторы, влияющие на этот процесс. Кроме того, приведены выводы, основанные на результатах исследования, а также предложения и рекомендации, имеющие научно-практическую значимость.

**Ключевые слова:** финансовое управление инвестициями, синдицированный кредит, зарубежный опыт, инвестиционная привлекательность, венчурный капитал, рынок венчурного капитала, инвестиционные компании, инвестиционные фонды, капитальные вложения.

### Abstract

This article examines the current state of financial management of investments, the specific features of managing investment processes through regulating investment attractiveness in the economy, as well as the development of a methodology for determining the required level of investment needed to ensure sustainable economic growth, including the analysis of the factors influencing this process. In addition, the article presents conclusions based on the research results, along with proposals and recommendations of scientific and practical significance.

**Keywords:** financial investment management, syndicated loan, foreign experience, investment attractiveness, venture capital, venture capital market, investment companies, investment funds, capital investments.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi, moliyaviy-iqtisodiy cheklovlar rejimining kengayishi hamda qo‘shilgan qiymat zanjiri va xalqaro transport-logistika tizimidagi uzilishlar mavjud sharoitda xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga qaratilgan investitsion siyosatni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday vaziyat investitsion muhitning jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta‘minlash hamda investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu bilan birga, global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 2 foizga qisqarib, 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda Yevropa mamlakatlaridagi moliyaviy oqimlarning keskin o‘zgarishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur tendensiyalar xalqaro investitsiyalar oqimi uchun global muhitning 2025-yilda ham pasayish ehtimoli yuqoriligini ko‘rsatmoqda.<sup>1</sup> Savdo va geosiyosiy ziddiyatlar, shuningdek sanoat siyosatidagi transformatsion jarayonlar investitsiyalarning tarkibiy tuzilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, transmilliy korporatsiyalarni xalqaro bozorlarni kengaytirishda ehtiyotkor strategiyalarni tanlashga undamoqda. Shu bilan birga, sof daromadlarning yuqoriligi, moliyalashtirish sharoitlarining yaxshilanib borishi hamda yangi loyihalarga talabning yillik o‘sishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kelgusidagi ijobiy dinamika bilan tiklanishiga imkon yaratishi kutilmoqda. Mazkur holatlar investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning ilmiy asoslangan metodologiyasini yanada rivojlantirish va barqaror investitsion oqimlarni ta‘minlashda metodik yondashuvlarni optimallashtirishni dolzarb vazifa sifatida ilgari suradi.

Jahonda barqaror iqtisodiy o‘rinni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish jarayonida investitsion muhitning qulayligi va yuqori investitsion faollik muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish determinantlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar tobora dolzarblashmoqda. Bunda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini modernizatsiya qilish, fiskal va moliyaviy rag‘batlantirish instrumentlarining samaradorligini baholash, xususan investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini transformatsiyalash jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish, loyihalarni moliyalashtirishning muqobil usullarini tasniflash va ularning moliyaviy mezonlarini aniqlash masalalari markaziy o‘rinni egallamoqda. Infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishning samarali modellari, shuningdek, mazkur loyihalarda xorijiy investorlar ishtirokini moliyaviy jihatdan ta‘minlash mexanizmlarining optimallashtirilishi investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

<sup>1</sup> [https://www.developmentaid.org/api/frontend/cms/file/2024/06/wir2024\\_en.pdf](https://www.developmentaid.org/api/frontend/cms/file/2024/06/wir2024_en.pdf)

O‘zbekiston iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining barqaror o‘shirishini ta‘minlash hamda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini kuchaytirish bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish esa investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini chuqur modernizatsiya qilishni talab qilmoqda. Davlat rahbarining ta‘kidlashicha, O‘zbekiston ilk bor Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan hamkorlikda moliya sektorining kompleks bahosini amalga oshirdi va mazkur xalqaro institutlar bank, moliya, sug‘urta hamda kapital bozori yo‘nalishlaridagi islohotlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan. Ushbu jarayonlar doirasida Moliyaviy barqarorlik kengashining tashkil etilishi, Markaziy bankda kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalarining ishga tushirilishi, shuningdek sug‘urta tizimidagi islohotlar, milliy va global qayta sug‘urtalash mexanizmlarining joriy etilishi moliyaviy infratuzilmaning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument venchur sarmoyalarning jadallik bilan rivojlanayotgani, yurtimizda 1 milliard AQSH dollardan yuqori qiymatga erishgan startaplar paydo bo‘lgani ham investitsiya ekotizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, kelgusi besh yilda venchur va boshqa muqobil investitsiyalar hajmini 1 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish mavzusi iqtisodiyot va moliya sohasida ko‘plab olimlar, amaliyotchilar va ekspertlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu sohada taqdim etilgan nazariyalar va amaliy tajribalar investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va xavflarni boshqarish masalalariga bag‘ishlangan.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

John C. Hull o‘zining “Options, Futures, and Other Derivatives” asarida investitsiyalarning moliyaviy boshqaruvi va risklarni boshqarish usullarini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, investitsiyalarni moliyalashtirishda risklarni diversifikatsiya qilish va turli moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurati mavjud. Bu yondashuv global bozor sharoitida kapitalni samarali yo‘naltirishning asosiy tamoyili hisoblanadi<sup>1</sup>.

Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan “Capital Asset Pricing Model” (CAPM) investitsiyalarni baholash va portfel boshqarish nazariyasining asosi bo‘lib, u moliyaviy boshqaruvda risk va kutilayotgan daromadni muvozanatlashtirishga

---

<sup>1</sup> John C. Hull (2018): "Effective financial management of investments requires a comprehensive understanding of risk diversification and the use of various financial instruments to mitigate uncertainties inherent in global markets." - Hull, J.C. (2018). Options, Futures, and Other Derivatives. Pearson.

qaratilgan. Bu model xorijiy moliyaviy bozorlarda keng qoʻllanilib, investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi<sup>1</sup>.

Xorijiy tadqiqotlarda, masalan, Morgan Stanley Capital International (MSCI) hisobotlarida, investitsiya portfellarini boshqarishning ilgʻor texnologiyalari va moliyaviy monitoring tizimlari haqida soʻz boradi. Ular xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarning rolini taʼkidlaydi<sup>2</sup>.

Janet Yellen investitsiyalarning makroiqtisodiy ahamiyatini taʼkidlab, davlat siyosatining moliyaviy boshqaruvdagi oʻrni va investitsion faollikni ragʻbatlantirish mexanizmlari haqida fikr bildirgan. Uning taʼkidlashicha, davlat tomonidan moliyaviy boshqaruv strategiyasini shakllantirish investitsiya oqimlarini koʻpaytirish va iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Shuningdek, Xitoy, Germaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlarning investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish boʻyicha amaliy tajribalari koʻplab ilmiy maqolalar va hisobotlarda batafsil tahlil qilingan. Ularning asosiy xususiyati — xavflarni boshqarish, moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash, shuningdek, investitsiya jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilishdir.

Xorijiy adabiyotlarda investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilar: risklarni baholash va diversifikatsiya, moliyaviy instrumentlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatini hisobga olgan boshqaruv tizimini yaratish. Bu omillar milliy iqtisodiyotlarda investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish maqsad qilingan. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv asosida statistik maʼlumotlar, xalqaro tajribalar va milliy siyosiy hujjatlar chuqur tahlil qilindi. Asosiy eʼtibor investitsiyalarning iqtisodiy oʻsishga taʼsirini aniqlovchi omillarni baholashga, moliyaviy muvozanat, resurslarning oqilona taqsimoti va risklarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratildi. Dinamik iqtisodiy muhitda barqaror oʻsishni taʼminlovchi moliyaviy boshqaruv mexanizmlari identifikatsiya qilindi. Uslubiy yondashuvda tahliliy-statistik, grafik, taqqoslash va sintez metodlari qoʻllanilib, moliyalashtirish mexanizmlarining kompleks modeli shakllantirildi. Mazkur metodologiya amaliyotda qoʻllashga yaroqli, sarmoyadorlar ishonchini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion asosga ega.

---

<sup>1</sup> Sharpe, W.F. (1964). "Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk." The Journal of Finance, 19(3), 425-442.- CAPM nazariyasi haqida asosiy ilmiy maqola.

<sup>2</sup> Morgan Stanley Capital International (MSCI). (2022). MSCI Global Investment Reports. - Investitsiya portfellarini boshqarish boʻyicha zamonaviy texnologiyalar va monitoring tizimlari haqidagi hisobotlar.


<sup>3</sup> Yellen, J. (2020). "The Role of Financial Management in Economic Policy." Speech at the Economic Policy Symposium, Federal Reserve.- Davlat siyosati va investitsiya boshqaruvi haqida nutq.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2024-yilda investitsiyalar hajmi 493,7 trln. soʻmni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 369,5 trln. soʻmga ortgani bu esa, salkam 4 barobarga koʻpayganligi koʻrsatmoqda.

2024-yilda Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 493,7 trln soʻm oʻzlashtirilgan miqdor, 2023-yilga nisbatan 127,6 % ni tashkil etdi.

2018–2024-yillarda investitsiyalar qariyb toʻrt baravarga oshgan. Eng yuqori oʻsish surʼatlari 2019-yil, 2023-2024 yillarda kuzatildi. 2020- 2021-yillarda oʻsish past boʻlishi dunyoda pandemiya va tashqi iqtisodiy omillar taʼsiriga bogʻliqligini koʻrish mumkin.



**1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va investitsiyalar tarkibining YaIMga nisbati<sup>1</sup>**

Shuningdek, YaIMdagi investitsiyalarning toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsirini tahlil qilsak, 2022-yilda pasayish kuzatilgan boʻlsa-da, 2024-yilda rekord daraja — 34,9%. Bu iqtisodiyotda investitsiyalarning tobora kuchayib borayotganini koʻrsatadi.

Qolaversa, 2018-yilda 24,3% boʻlgan chet el investitsiyalari 2024-yilda 69,4%gacha oshgan. Bu Oʻzbekiston iqtisodiyotining xalqaro bozorlarga ochiqligi ortganini, xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibadorlik oshganini koʻrsatadi. 2023-2024-yillarda katta oʻsish qayd etilgan.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Davlat byudjeti hissasi stabil emas: 2019–2021-yillarda yuqori boʻlgan, keyin pasaygan. 2024-yilda 4,6% — 2018-yil darajasiga yaqinlashgan. Bu davlatning investitsiyalardagi rolini qisqartirib, xususiy va chet el sarmoyalariga keng imkoniyat berilayotganini anglatishi mumkin.

Yuqoridagi diagramma maʼlumotlaridan kelib chiqib shuni taʼkidlash lozimki, investitsiya hajmi barqaror va jadal oʻsishda, ayniqsa 2023–2024-yillarga toʻgʻri kelgan, chet el sarmoyalarining ulushi keskin oshgan, bu mamlakatning ochiq iqtisodiy siyosati va islohotlari natijasidir.

Yuqoridagi natijalar bilan bir qatorda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishda ayrim muhim jihatlar mavjud.

Korxonalariga ESG sertifikatlari standartlarini joriy qilish orqali korxonani investitsion jozibadorligini oshirish lozim. Bunda davlat va xususiy sektor korxonalariga investitsiyalarni moliyalashtirishda kredit mablagʻlari va xorijiy sarmoyani jalb qilish imkoniyatlari kengaydi va yirik loyihalar (energetika, telekommunikatsiya, togʻ-kon, metallurgiya va kimyo sanoati sohalarida) faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi;

Xususan, energetika sohasida “Oʻzbekgidroenergo” AJ “ESG” reytingida 79 ball bilan Markaziy Osiyodagi eng moliyaviy barqaror korxonada deb topilib, nufuzli xorijiy banklarning past foizli kredit mablagʻlarini jalb qilish orqali yangi GESlarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilmoqda.

Davlat kafolatisiz nosuveren xorijiy kreditlar olinganda respublika komissiyasidan soddalashtirgan tartibda ruxsat olish tizimini joriy qilish lozim. Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini taʼminlash boʻyicha respublika komissiyasi respublika rezidentlari boʻlgan yuridik shaxslar tomonidan ortiq boʻlgan xorijiy kreditlarni jalb qilish jarayonlarini tartibga solish yuklatilgan. Mazkur komissiya tarkibi 18 ta davlat boshqaruv organidan iborat boʻlib, amalda ushbu komissiyadan ruxsat olish juda qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi va 20 mln AQSH dollardan kam boʻlgan tashqi kredit va qarz mablagʻlarini komissiya ruxsatisiz jalb qilishga ruxsat berilganini koʻrish mumkin.

Qolaversa bu mexanizm risk asosida korxonalarni tasniflash va xabarnoma orqali moliyalashtirishga imkon beradi, shuningdek, korxonaning moliyaviy shaffofligi va hisobdorligini oshirishga yoʻnaltirilgan. Davlat kafolatisiz, nosuveren kreditlar olishda qulaylik yaratadi va korxonaning kreditga layoqatlilikini baholash xalqaro amaliyotda MHXS asosida amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Oʻzbekistonning investitsiyaviy siyosati soʻnggi yillarda yangi bosqichga koʻtarilib, moliyaviy boshqaruv sohasida chuqur tarkibiy islohotlar va ilgʻor xalqaro tajribalarning joriy etilishi orqali izchil rivojlanmoqda. 2018–2024-yillar davomida asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmining salkam toʻrt barobar oshgani, xorijiy sarmoyalar ulushining 70% ga yaqinlashgani — mamlakatimizda investitsiya muhitining jozibadorligi keskin oshganidan yaqqol dalolat beradi.

Yurtimizda olib borilayotgan ochiq iqtisodiy siyosat, davlat boshqaruvida shaffoflik tamoyillarining kuchayishi va moliyaviy infratuzilmaning modernizatsiyasi

— bularning barchasi O‘zbekistonni nafaqat mintaqada, balki xalqaro maydonda ham ishonchli va istiqbolli investitsiyaviy sherikka aylantirmoqda. Ayniqsa, ESG standartlarining tatbiqi, venchur kapital bozorining shakllanishi va moliyalashtirish mexanizmlarining soddalashtirilishi moliyaviy boshqaruvda zamonaviylik va moslashuvchanlikni ta’minlamoqda.

Qabul qilinayotgan qarorlar, ishlab chiqilayotgan qonunlar va isloh etilayotgan tizimlar O‘zbekistonda investitsiyalarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlab, milliy iqtisodiyotda barqaror o‘sish va innovatsion yondashuvlar uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Tahlil va natijalardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Investitsiya siyosatini yuqori aniqlik bilan rejalashtirish — Investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni ilg‘or prognoz modellar asosida tahlil qilish, har bir tarmoq va hudud uchun investitsiyaviy xaritalar yaratish orqali sarmoyadorlar uchun aniq va ishonchli yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi lozim.

2. ESG standartlari asosida jozibadorlikni kuchaytirish — Korxonalarining ekologik va ijtimoiy barqarorlik ko‘rsatkichlarini oshirish orqali ularning global investitsiya maydonidagi reytingi va ishonchliligi mustahkamlanadi.

3. Nosuveren moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish — 20 million AQSH dollarigacha bo‘lgan xorijiy kreditlar uchun soddalashtirilgan ruxsat tartiblarini takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy vositalar orqali tashqi resurslarni jalb qilishni yengillashtiradi.

4. Venchur kapital va startaplar rivojini jadallashtirish — Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda texnoparklar, inkubatorlar va muqobil investitsiya fondlari orqali bilimga asoslangan iqtisodiyot poydevori mustahkamlanadi.

5. Investitsiyalar monitoringini raqamlashtirish — Har bir yirik investitsiya loyihasini onlayn rejimda kuzatuvchi, hayotiy sikl xarajatlarini avtomatik tahlil qiluvchi yagona platforma joriy etilishi, sarmoyaviy samaradorlikni oshiradi.

6. Yashil iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash — Qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi va ekologik toza ishlab chiqarish yo‘nalishlariga mo‘ljallangan “yashil obligatsiyalar” va “barqaror kreditlar” bozori yaratish muhim vazifadir.

7. Milliy investitsiyaviy jozibadorlik indeksini ishlab chiqish — Har bir hudud va tarmoq kesimida xorijiy sarmoyadorlar uchun ochiqlik va ishonchlilik darajasini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi yaratilsa, O‘zbekistonning global investitsiyaviy reytinglari yanada yaxshilanadi.

O‘zbekistonning investitsion salohiyati, moliyaviy infratuzilmasi va islohotlarga sodiqligi uni xalqaro miqyosda barqaror o‘sish drayveriga aylantirmoqda. Moliyaviy boshqaruv metodologiyasini chuqurlashtirish, ilg‘or vositalarni joriy etish va institutsional muhitni takomillashtirish orqali O‘zbekiston global investitsion markazga aylanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. John C. Hull (2018): "Effective financial management of investments requires a comprehensive understanding of risk diversification and the use of various financial

instruments to mitigate uncertainties inherent in global markets."- Hull, J.C. (2018). Options, Futures, and Other Derivatives. Pearson.

2. Sharpe, W.F. (1964). "Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk." The Journal of Finance, 19(3), 425-442.- CAPM nazariyasi haqida asosiy ilmiy maqola.

3. Morgan Stanley Capital International (MSCI). (2022). MSCI Global Investment Reports. - Investitsiya portfellarini boshqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va monitoring tizimlari haqidagi hisobotlar.

4. Yellen, J. (2020). "The Role of Financial Management in Economic Policy." Speech at the Economic Policy Symposium, Federal Reserve.- Davlat siyosati va investitsiya boshqaruvi haqida nutq.

5. <https://www.worldbank.org> — World Bank – statistik ma'lumotlari asosida.

6. Agentligi (Germany Trade & Invest, GTAI) — Germaniya Tashqi Savdo va Investitsiyalar ma'lumotlari.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

**Ingliz tili muharriri:**

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

**Rus tili muharriri:**

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

**Musahhah:**

Karimova Shirin Zoxid qizi

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, sentyabr, 9-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**